



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30604/2024.1.6)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 6

Published: 01.09.2024 <https://universaljurnal.uz>

### International indexes

GOOGLE SCHOLAR  
CROSSREF (OAK BAZA)  
ZENODO  
OPEN AIRE  
EUROPUB  
RESEARCHGATE (OAK BAZA)  
SJIF



To'rayev Farxodjon Farmonovich

Alfraganus University,  
"Matematika va fizika" kafedrası,  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD  
Uzbekistan

### YIGIRUV MASHINASI DISKRETLOVCHI ZONASI YANGI KONSTRUKTSIYADAGI YARATILGAN TA'MINLOVCHI SILINDR VALI VA GARNITURASI HARAKAT QONUNINI TAJRIBADA ANIQLASH

**Annotatsiya:** Maqolada yigiruv mashinasi diskretlovchi zonasi ta'minlovchi silindr vali va garniturası harakat qonunini tajribada aniqlash natijalari keltirilgan. Tarkibli ta'minlovchi silindr vali va garniturasidagi burchak tezliklar taxogenerator yordamida o'lanib, texnologik qarshilik va rezinali vtulka bikrligiga bog'liq ravishda o'zgarishlari olingan. Taxlillar asosida ta'minlovchi silindr parametrlari qiymatlari tavsiya etilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'minlovchi silindr, tarkibli, val, rezinali vtulka, garnitura, riflyali, prizmatik, ishchi element, burchak tezlik, tebranish qamrovi, texnologik qarshilik, ishqalanish kuchi, moment lenta, tolalar.

**Abstract:** The article presents the results of experimental determination of the law of motion of the cylinder shaft and gasket providing the discretization zone of the spinning machine. Angular velocities on the shaft and gasket of the component supply cylinder were measured using a tachogenerator, and their changes were obtained depending on the technological resistance and the uniformity of the rubber bushing. Based on the analysis, the values of the supply cylinder parameters are recommended.

**Key words:** supply cylinder, component, shaft, rubber bushing, gasket, ribbed, prismatic, working element, angular speed, vibration range, technological resistance, friction force, torque tape, fibers.

**Аннотация:** В статье представлены результаты экспериментального определения закона движения вала цилиндра и прокладки, обеспечивающей зону дискретизации прядильной машины. С помощью тахогенератора измерялись угловые скорости на валу и прокладке цилиндра подачи компонентов и получены их изменения в зависимости от технологического сопротивления и однородности резиновой втулки. На основании анализа рекомендованы значения параметров питающего цилиндра.

**Ключевые слова:** подводный цилиндр, деталь, вал, резиновая втулка, прокладка, ребристая, призматическая, рабочий орган, угловая скорость, диапазон вибрации, технологическое сопротивление, сила трения, торсионная лента, волокна.

**Language:** Uzbek

**Citation:** To'rayev, F. EXPERIMENTAL DETERMINATION OF THE LAW OF MOVEMENT OF THE SUPPLY CYLINDER SHAFT AND HEADSET CREATED IN THE NEW CONSTRUCTION OF THE SPINNING MACHINE DISCRETE ZONE. *Universal International Scientific Journal*, 3–9. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1095>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.13798837>

Tajribalar o'tkazish metodikasi. Yigiruv mashinasida sifatli ip olish uchun diskretlovchi zonada tolalarni o'zaro parallel va alohida ajralgan bo'lishi muhim hisoblanadi [1, 2]. Buning uchun diskretlovchi zona ta'minlovchi silindri tarkibli qilib, rezinali amortizator bilan jihozlangan [3, 4].

Shuningdek, ta'minlovchi silindr garniturasida ma'lum qadamlar oralig'ida



**1-rasm. Diskretlovchi zona ta'minlovchi silindri tajribaviy nusxasi ko'rinishlari.**

O'tkazilgan tajribaviy tadqiqotlarda garnituraga o'rnatilgan riflyali prizmatik ishchi elementlarning ketma-ketligi 3 xil variantda amalga oshirildi.

- 1, 2, 3, 4, 1, 2, 3, 4;

- 1, 3, 2, 4, 1, 3, 2, 4;


- 2, 1, 3, 4, 2, 1, 3, 4.

bu erda 1, 2, 3, 4 – ishchi elementlar tartib

raqamlari, bunda 1 – riflyasiz, – 50% riflyali; 3 – ikki oralab qavqariq tishli; 4 – ketma – ket qavariq tishli.

Tajribalarda asosan ta'minlovchi silindr vali va riflyali garniturasini aylanish chastotasi o'zgarish qonuniyatlari aniqlandi [6, 7]. 2-rasmda ta'minlovchi silindr vali va garniturasini aylanish chastotalari tajribada aniqlash sxemasi

2 keltirilgan. Ta'minlovchi valga 1 biki qilib o'rnatilgan taxogenerator 4 va riflyali garnituraga 2 moslashtirilgan qurilma 9 orqali taxogenerator 5 ulangan bo'lib, signallar kuchaytirgichga 6 uzatiladi. So'ngra fizik parametrlar sonli o'zgartirgich 7 orqali kompyuterga uzatiladi. Natijalar ossillogrammalar (o'zgarish qonunlari) tarzida olindi [8, 9].



**2-rasm. Ta'minlovchi silindr vali va garniturasini aylanish chastotalari tajribada aniqlash sxemasi**

Tajribaviy natijalar tahlili. Keltirilgan tajribalarda o'tkazish sxemasiga (2-rasm) asosan 3-rasmda ta'minlovchi silindr vali va riflyali garniturasini burchak tezliklarini rezinalli vtulka bikrligiga bog'liq bo'lgan o'zgarish qonuniyatlari keltirilgan. Mos ravishda 4-rasmda diskretlovchi zona ta'minlovchi silindr vali va garniturasini burchak tezliklarini o'zgarishlarini ishqalanish momentini



o'zgarishi (prizmatik tishli ishchi elementlar turli ketma-ketligida) keltirilgan. Ularda asosan ta'minlovchi silindr vali va riflyali, tishli garniturasini aylanish chastotasini o'zgarish qonuniyatlari berilgan.

Jumladan, tarkibli ta'minlagich rezinalli vtulkasi 1338 markali rezinadan foydalanilganda  $n_2$  va  $n_v$  orasidagi farq uncha katta emas, lekin,  $\Delta M$  va  $\Delta n_v$  orasidagi farq


etarlicha kattaligini ko'rish mumkin (3-rasm, 1-ossillogramma). Buning asosiy sababi shundan iboratki, 1338 markali rezinali vtulka bikrligi yuqori emas, etarlicha deformatsiyasi hisobiga  $\Delta n = \Delta n_2 - \Delta n_v$  yuqori bo'ladi, lekin qayishqoq element sifatida 1847 markali rezina qo'llanilganda  $n_2$  va  $n_v$  orasidagi farq etarli darajada kamayadi (3-rasm, 2-ossillogramma). Shuningdek, 4-rasmda diskretlovchi zona ta'minlovchi silindr vali va garniturasini burchak tezliklarini o'zgarishlarini

ishqalanish momentini o'zgarishi (prizmatik tishli ishchi elementlar turli ketma-ketligida) keltirilgan. Olingan qonuniyatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ishqalanish kuchi momentini ortishi etarli darajada  $\Delta n_v$  va  $\Delta n_2$  larni ortishiga olib keladi.

Olingan aylanish chastotalarini o'zgarish qonuniyatlarini qayta ishlash natijasida parametrlarning bog'lanish grafiklari qurildi [9, 10].




3-rasm. Ta'minlovchi silindr vali va riflyali garniturasida burchak tezliklarini rezinali vtulka bikrligiga bog'liq bo'lgan o'zgarish qonuniyatlarini.



4-rasm. Diskretlovchi zona ta'minlovchi silindr vali va garniturasida burchak tezliklarini o'zgarishlarini ishqalanish momentini o'zgarishi (prizmatik tishli ishchi elementlar turli ketma-ketligida)

Jumladan, 5-rasmda diskretlovchi zona ta'minlovchi silindri vali va garniturasida aylanish chastotasi qamrovini rezinali vtulka bikrligiga bog'liqlik grafiklari keltirilgan[11,12,13].




1,2- $\Delta n_2=f(C)$ ; 1,2- $\Delta n_v=f(C)$ ;

1,3-tajribaviy 2,4-nazariy

5-rasm. Diskretlovchi zona ta'minlovchi silindri vali va garniturasini aylanish chastotasi qamrovini rezinali vtulka bikrligiga bog'liqlik grafiklari

Tahlillarga asosan, rezinali vtulka bikrligi  $0,245 \cdot 10^2$  Nm/rad dan  $0,473 \cdot 10^2$  Nm/rad gacha ortganida riflyali garnitura aylanish chastotasi tebranish qamrovi qiymatlari 1,36 ayl/min dan 0,54 ayl/min gacha nohiziqli bog'lanishda kamayadi, hamda  $\Delta n_v$  qiymatlari esa 0,89 ayl/min dan 0,159 ayl/min gacha nohiziqli bog'lanishda



1,2- $\Delta n_r=f(M_{\text{ishq}}^{\wedge}/M_{\text{ishq}})$ ;

3,4- $\Delta n_v=f(M_{\text{ishq}}^{\wedge}/M_{\text{ishq}})$ ;

1,3- nazariy; 2,4- tajribaviy

6-rasm. Ta'minlovchi tarkibli silindr validan va garniturasini aylanish chastotasi tebranish qamrovini tolali lenta bilan ta'sirlashuvidagi ishqalanish kuchi momentini o'zgarishiga bog'liqlik grafiklari

Qurilgan grafiklar tahliiga ko'ra  $M_{\text{ishq}}^{\wedge}/M_{\text{ishq}}$  qiymatlari 0,35 dan 1,8 gacha ko'payganda  $\Delta n_2$  qiymatlari 0,3 ayl/min dan 0,76 ayl/min gacha chiziqsiz bog'lanishda ortadi, bunda  $\Delta n_v$  qiymatlari 0,23 ayl/min dan 0,37 ayl/min gacha ortadi, xolos. Mos ravishda nazariy va tajribaviy

pasayib borishini ko'rish mumkin (5-rasm, 1,3-grafiklar). Bunda nazariy va tajribaviy nrafiklar solishtirilganda S ning qiymatlari  $0,4 \cdot 10^2$  nm/rad dan yuqori bo'lgandagi farqi (4,0÷7,0) % dan ortmaydi. Bu muhandislik hisoblariga mos keladi. Tavsiya qiymatlari  $S=(0,25 \div 0,4) \cdot 10^2$  nm/rad (1338 markali rezina). 6-rasmda ta'minlovchi tarkibli silindr validan va garniturasini aylanish chastotasi tebranish qamrovini tolali lenta bilan ta'sirlashuvidagi ishqalanish kuchi momentini o'zgarishiga bog'liqlik grafiklari keltirilgan [14,15].

grafiklar orasidagi farq (7,0÷11) % foizni tashkil etadi. Lenta tolalarini o'zaro parallel ajratish va surish uchun  $\Delta n_2$  qiymatlarini etarli darajada yuqori bo'lishlik va ishqalanish kuchlarini prizmatik ishchi elementlarini 1,2,3,4,1,2,3,4 ketma-ketlikda joylashtirish  $M_{\text{ishq}}^{\wedge}/M_{\text{ishq}} = (1,5 \div 1,6)$  oralig'ida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Tavsiya etilgan diskretlash zonasi ta'minlovchi silindr vali va riflyali (tishli) garniturasini aylanish chastotalarini o'zgarish qonuniyatlari tajribada aniqlandi. Tahlillar asosida parametrlarning tavsiya qiymatlari olindi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Тўраев Ф.Ф, Джураев А.Дж. Патент UZ № IAP 06783. Питающий цилиндр прядильного устройства .
2. Тўраев Ф.Ф “Конструкции питающего столика зоны дискретизации прядильной машины”// *International Scientific Journal «Global Science And Innovations 2020: Central Asia» Nur-Sultan, Kazakhstan, Feb-March 2020*.159-161 betlar.
3. Тўраев Ф.Ф “Изучение и анализ влияния конструкции питающего столика прядильной машины на качество пряжи”//Институт механики и сейсмостойкости сооружений им. М.Т. Уразбаева АН РУз. “Механика muammolari” jurnali №3 soni 2020 yil. 133-136 betlar.
4. Джураев А., Тўраев Ф.Ф «Расчёт параметров составного питающего цилиндра зоны дискретизации прядильной машины»//Институт механики и сейсмостойкости сооружений им. М.Т. Уразбаева АН РУз. “Механика muammolari” jurnali №2 soni 2022 yil. 98-103 betlar.
5. Juraev Anvar Juraevich & Turaev Farkhodjon Farmonovich “Determination Of The Rigidity Of A Rubber Bushing Of A Composite Feeding Cylinder Of A Spinning MachineWith A Discreting Zone”// “Journal of optoelectronics laser”. 2022,Vol41.Issue5.pp.673-679.
6. Джураев А., Тўраев Ф.Ф “Расчёт жесткости резиновой втулки составного питающего цилиндра зоной дискретизации прядильной машины”// Фаргона Политехника Институту “Yengil sanoat tarmoqlari, muammolari, tahlil va yechimlari” Республика илмий-амалий анжумани 2022 yil 29 - 30 aprel. 610-613 betlar.
7. Джураев А., Тўраев Ф.Ф “Таркибли таъминловчи цилиндрнинг самарали конструктив схемаларини ишлаб чиқиш”// “Евразийский журнал технологий и инноваций”. Volume 1, Issue 6, Part 2 June 2023, pp.196–200.
8. Джураев А., Тўраев Ф.Ф “Йигирув машиналари дискретлаш зонаси таъминловчи зона таъминловчи цилиндрни конструктив хусусиятлари таҳлили”// “Central asian journal of education and innovation”.Volume 2, Issue 6, Part 5 June 2023,pp.105–109.
9. Джураев А., Тўраев Ф.Ф “Исследование параметры питающего цилиндра прядильной машины”// “Пахта tozalash, to‘qimachilik, yengil sanoat, matbaa ishlab chiqarish sohasida fan va ta’lim integratsiyalashuvini rivojlantirish tendentsiyalari” mavzusidagi Республика илмий-амалий анжумани. Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti 2023 yil.
10. Тўраев Ф.Ф “Йигирув машиналари дискретлаш зонаси таъминловчи цилиндрнинг самарали конструкциясини қўллашда ип физик-механик хосса кўрсаткичларининг қиёсий таҳлили”// “Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 13-sonli respublika ilmiy konferensiyasi materiallari to‘plami 30-iyun, 2023-yil 1-qism. 26-30 betlar.
11. Джураев А., Тўраев Ф.Ф “Расчёт параметров составного питающего цилиндра зоны дискретизации прядильной машины”// “То‘qimachilik va yengil sanoatda ilmhajmdor innovatsion texnologiyalar va dolzarb muammolar yechimi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnikaviy anjumani maqolalari to‘plami. Фаргона политехника институту 26-27 aprel 2023 yil. 232-235 betlar.
12. Джураев А., Тўраев Ф.Ф “Таркибли таъминловчи цилиндр билан толали пилта орасидаги ишқаланиш кучини аниқлаш”// “International Conference on Mathematical Analyzes and Physics”. 2023 yil. 7-10 betlar.
13. Juraev Anvar Juraevich & Turaev Farkhodjon Farmonovich “Determination of the friction force between the composite feeding cylinder and the fiber rove”// Scientific and Technical Journal Namangan Institute of Engineering and Technology. 2023.Vol 8.Issue 2.pp.241-245.
14. Juraev Anvar Juraevich & Turaev Farkhodjon Farmonovich “The influence of the friction force torque with the tape on the rotation irregularity of the supply cylinder headset of the discrete zone of the spinning machine”// SCIENCE AND INNOVATION international scientific journal volume 2 issue 9 september 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz. pp.12-18.
15. Juraev Anvar Juraevich & Turaev Farkhodjon Farmonovich “Analysis of friction force between fiber belt and fiber tape with recommended feed cylinder”// SCIENCE AND INNOVATION international scientific journal volume 2 issue 9 september 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz. pp.5-11.